

XORAZM VOHASIDA XX ASR 30-YILLARIDAN MUSTAQILLIK DAVRIGACHA
AMALGA OSHIRILGAN ARXEALOGIK TADQIQOTLAR

A.S.Sagdullayev

*Tarix fanlari doktori professor, O'zbekiston Fanlar
akademiyasi akademigi*

D.B.Tajimuratov

O'zbekiston milliy universiteti arxeologiya yo'nalishi 1-boqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola Xorazm vohasining antik davr mil.avv IV-milodiy IV asrlar shaharlarining o'rganilish tarixiga bag'ishlangan bo'lib, xorazmda 30-yillardan 1945-yilgacha olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar, urushdan keyingi arxeologik-etnografik ekspeditsiyalar va mustaqillik davrida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar haqida ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Antik shaharlar, Xorazm vohasida XX 30-yillarigacha olib borilgan arealogik tadqiqotlar, A.Yu.Yakubovskiy ekspeditsiyasi, S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi, Antik Xorazm yodgorliklarini o'rganish bosqichlari, Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasining nashr qilingan jildlari, Xorazmning antic davr arxeologiya xaritasi, mustaqillik davrida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar.*

Xorazm yodgorliklarini arxeologik jihatdan o'rganish XX asrning 30-yillari o'rtalaridan boshlanadi va bu ish hozirgacha davom etmoqda. Tadqiqotda Xorazm vohasining qadimgi davri qal'alarining arxeologik jihatdan o'rganilishi tarixini to'rt bosqichga bo'lish mumkin: urush davrigacha (1936-1940) olib borilgan tadqiqotlar; urushdan keyingi davrda (1945-1958) olib borilgan tadqiqotlar; 1959-1990 yillarda olib borilgan tadqiqotlar va mustaqillik yillarida olib borilayotgan tadqiqotlar⁶. XX asrning 30 yillariga qadar Xorazm vohasida antik davrga oid tarixiy obidalarda arxeologik qazish ishlari olib borilmasdan asosan yodgorliklarning o'rta asr madaniy qatlamlari o'rganilgan xolos.

Yana Qadimgi Xorazmda shahar-davlatchilik tarixining o'rganilish tarixshunosligini ikki bosqichga ajratish mumkin.

I Bosqich yozma manbalardagi ma'lumotlar bo'lib, XX asrning 30 yillari o'rtalarigacha;

II Bosqich esa XX asrning 30 yil o'rtalaridan hozirgi kungacha bo'lgan tarixiy jarayonni qamrab olgan.

Birinchi bosqichda Xorazm vohasi tarixiga oid ma'lumotlar Avesto, yunon va rim, ahamoniylar, Xitoy yozma manbalari, arab sayyohlari va geogarflari, Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy asarlari, rus tadqiqotchilari asarlaridagi ma'lumotlarni qamrab olgan⁷.

Xorazmning qadimgi davriga oid juda ham muhim tarixiy lavhalar arab istilosidan keyingi alohida qudratli Xorazm davlati tashkil topgandan so'nggi davrdagi mahalliy va arab mualliflarining asarlarida ham mavjud. Shulardan eng qimmatlisi xorazmlik mutafakkir

⁶ G'ayratdin Xo'janilyazov. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari (Mil.avv VI asrdan mil. IV asrgacha). Toshkent – "O'zbekiston" – 2007-yil. 22-bet

⁷ Толстов С.П. Новые материалы по истории культуры древнего Хорезма. ВДИ №2, 1946. С.50-55

Beruniyning bizgacha yetib kelmagan «Xorazm tarixi»dir. Bu ajoyib asardan ayrim parchalar faqat qo'shni mamlakatda ijod qilgan tarixchilarning asarlarida saqlanib qolgan⁸.

Ilmiy jihatdan oqiz bo'lgan ayrim olimlar antik Xorazmni va butun O'rta

Osiyoni qadimdan feodalizm tuzumi bilan bog'liq bo'lgan va bu yerda davlat tizimi bo'lmagan degan fikrni yuritadilar. Bunday noto'g'ri fikrlar mashhur Rus sharqshunosi akademik V. V. Bartold va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida ham mavjud. Ammo ko'p olimlar, jumladan V. V. Bartold, K. A. Inostransev, N. Veselovskiy, P. Lerx, V. V. Tarn, Zaxau, Tomashek va Markvart Xorazmning qadimgi tarixini tushunishga ancha intilganlar. Qadimgi Xorazmning qudratli davlat bo'lganligini ko'rsatishda Markvart ancha ishlar qilgan.

Xorazm xarobalarini birinchi bo'lib S. P. Tolstov ekspeditsiyasidan ilgari 1928–1929 yillarda A.Yu.Yakubovskiy ekspeditsiyasi tekshira boshlagan. Bu ekspeditsiya asosan o'rta asr Xorazm shohlari ning markazi Urganch vayronalarini tadqiq qilgan edi⁹.

Xorazm ekologiyasi va iqlimi muammolari bilan shug'ullanuvchi boshqa soha vakillarining (geograflar, gidrogeologlar, tuproqshunoslar) diqqat markazida ekanligi tasodifiy emas. Xorazm va uning madaniyatini o'rganishda 1937-yilda tashkil etilgan va 40 yil muttasil Sergey Pavlovich Tolstov rahbarlik qilgan Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasining ulkan rolini so'z bilan ifodalash mushkul. Unda qatnashgan xodimlarning tirishqoqligi va tashabbuskorligi bu ekspeditsiyani tarix fanining yirik ilmiy guruhiga aylantirdi.

Sobiq Ittifoq hududidagi siyosiy o'zgarishlar ta'sirida O'rta Osiyoda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi ishini tashkillashtirishda muayyan o'zgarishlar yuz berdi. Biroq ilmiy aloqalar uzilmadi va ekspeditsiya Qozog'iston hamda Qirg'iziston Fanlar akademiyalari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti, Xorazm Ma'mun akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi va ilmiy muassasalar bilan o'zaro aloqada ishlashni davom ettirmoqda.

1934-yilda M.B.Voyevodskiy rahbarligidagi ekspeditsiya Turkmanistonning Toshovuz viloyatida ish olib bordi.

S.P. Tolstov o'zining tadqiqotlari natijasini bir qator ilmiy adabiyotlarda nashr qilish bilan Xorazm tarixini yoritishda alohida o'rin egalladi¹⁰.

S.P. Tolstov birinchi safari chog'idayoq mazkur mintaqa istiqbolini munosib baholab, aspiranti A.I. Terenojkinni o'sha yerga yuborgan edi (1937). Uning ilk o'rta asrga oid Burgutkal'a vohasini va bir qator yodgorliklarni tadqiq etishi Xorazm ekspeditsiyasi muntazam dala ishlarining boshlanishiga asos bo'ldi¹¹.

Ya.G'.G'ulomov 1937-yilda Janubiy Qoraqalpog'istonning qadimiy sug'oriladigan quduqlaridagi bir qator ko'hna shahar xarobalarini tadqiq qilishda davom etdi¹².

S.P.Tolstov miloddan avvalgi VIII-VII asrlar va antik davrda Xorazmdagi yirik sug'orish kanallarining mavjudligini, qudratli markaziy davlat siyosati bilan bog'lab, shu hududda davlat tashkiloti bo'lmaganda bunday yirik va uzun

⁸ Iso Jabborov. Ko'hna xarobalar siri. Toshkent 1961-yil. 14-betlar

⁹ Iso Jabborov. Ko'hna xarobalar siri. Toshkent 1961-yil. 16-17-betlar

¹⁰ С.П.Толстов Последам древно хорезмийской цивилизации М.,Наука, 1948 г

¹¹ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. - Т.: 1964.-33-б.

¹² Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. - Т.: 1964.-33-б.

kanallarni qazib va ularni saqlab bo‘lmasdi deb to‘g‘ri xulosaga kelganligini qayd qilishimiz lozim¹³.

U kompleks arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasiga aylangach, texnik vositalar bilan yanada ta‘minlandi. Ekspeditsiyaning qariyb 70 yillik izlanishlari natijasida qo‘lga kiritilgan ko‘plab arxeologik materiallar O‘zbekistonning qadimiy tarixiga doir bir qator dolzarb muammolarni yangicha yoritish imkonini beradi.

Xorazm va unga chegaradosh hududlarning boy etnografiya materiallari ekspeditsiya faoliyatining bebaho natijasidir. Bizning davrimizgacha deyarli yo‘qolib ketgan ko‘plab obidalar, an‘analar, urf-odatlar Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tadqiqotlari natijasi o‘laroq, fan uchun, tarixiy xotira sifatida saqlanib kelmoqda.

Xorazm ekspeditsiyasi sobiq ittifoqdosh respublikalar Fanlar akademiyalari bilan doim uzviy aloqada faoliyat olib borgan.

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi «Asarlar»ining har bir jildida ekspeditsiya faoliyatining muayyan davri bo‘yicha o‘ziga xos tarixiy ma‘lumotlarni aks ettiruvchi muqaddima berib borilgan. Shuni ta‘kidlash joizki, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi faoliyati xanuz maxsus tadqiq etilmagan.

«Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasi»ning Ilmiy asarlari bo‘lib, hozirga qadar ularning 16 jildi, Xorazm ekspeditsiyasi materiallarining 10 ta to‘plami chop etildi.

Geolog Arxangelskiy Xorazmning qadimgi sug‘oriladigan hududida Jonbosqa‘la, Tuproqqal‘a, Qizilqal‘a, Bozorqqal‘a, Guldursin qal‘alari to‘g‘risida ma‘lumot berib, ularni xaritaga joylashtirgan, lekin arxeologik tadqiqotlar olib borilmagan. Urushgacha bo‘lgan davrda olib borilgan ishlar yakuni S.P. Tolstovning «Qadimgi Xorazm» monografiyasida berildi (M., 1948).

S.P.Tolstov ekspeditsiyasining yutuqlaridan biri u ko‘p qatlamli statsionar qazilmalarni olib borish bilan birga qadimgi sug‘oriladigan joylardagi barcha hududlarda aviatsiya yordamida, keng avtomobil marshrutlari tufayli keng miqyosdagi kartografik ishlar o‘tkazib, noyob arxeologik plan va xaritalar yaratilganligidadir.

Arxeologiya fani tajribasida birinchi marta ekspeditsiya ishida aerofotogrammetrik uslubning qo‘llanilishi va tadqiqotlarda atoqli neomorfolog M.S.Kesning ishtirok qilishi tufayli juda ham muhim kashfiyotlar qo‘lga kiritilgan edi. Olim 1937-1940-yillarda arxeologik izlanishlar olib bordi va “Xorazm sivilizatsiyasi” degan tushunchani arxeologiya faniga olib kirdi.

Arxeologik tadqiqotlar uchun aviamarshrutlarning uzunligi 9000 km ga teng edi, 250 dan ortiq qadimiy shahar va qishloqlar ochildi va o‘rganildi¹⁴.

S.P.Tolstov o‘z tadqiqotlari bilan o‘zbek xalqining asosini sharqdan ko‘chib kelgan ko‘chmanchi qabilalar emas, balki shu ko‘hna maskanda ming yillar davomida o‘troq hayot kechirib kelgan erli xalq – xorazmiylar, sug‘diylar, toxarlar, baqtriyaliklar hamda Amu va

¹³ Толстов С.П. Древности Южного Хорезма. М., Наука, 1948 г. С. 341

¹⁴ Исо Жабборов. Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). Москва 2014 г. С27

Sirdaryo bo'ylarida azaldan yashab chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan massaget - saklar tashkil etganligini isbot qildi.¹⁵

Hozirgi mezonlarga ko'ra juda kam bo'lgan arxeologik material asosida Xorazm tarixi eng qadimgi zamonlardan o'rta asrlargacha davrlashtirib berildi. Antik Xorazm yodgorliklari tarixiga ayni shu kitobda birinchi darajali ahamiyat qaratildi.

Antik Xorazm yodgorliklarini o'rganish to'rt davrga bo'linadi:

1) uy-joy devorlari bo'lgan shahriston madaniyati (mil.avv.VI-IV asrlar).

2) Qanhxa madaniyati (mil.avv.IV asr -mil.I asr).

3) kushonlar madaniyati (mil.II-III asrlar).

4) kushon-afriq' o'tish madaniyati (mil.III-V asrlar)

S.P.Tolstovning 1942-yilda Toshkentda ximoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi asosida yaratgan «Qadimgi Xorazm»¹⁶ nomli monografiyasi ekspeditsiyaning ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan tadqiqotlariga yakun yasadi.

Urush davrida ekspeditsiya ishi to'xtatib turildi. Deyarli barcha xodimlar ko'ngilli bo'lib frontga ketdilar.

Urush g'alaba bilan tugab, jahonda tinchlik taronasi yangray boshlagach, arxeologlarimiz ham o'zlarining sahro tomon yurishlarini har qanday sharoitda yura oladigan mashina (vezdexod)lar va aviatsiya yordamida qaytadan boshlab yubordilar. Bir necha otryaddan iborat bo'lgan bu mashhur ekspeditsiya sharqda Sirdaryo va markaziy Qizilqumdan, g'arbda to Kaspiy dengizining sharqiy va janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan keng hududda ibtidoiy davrdan boshlab o'rta asrning oxirlarigacha oid bo'lgan ko'p yodgorliklarni topib tekshirdi.

1945-yildan Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi tarkibida etnografik guruhlar tashkil qilina boshlandi. T.A.Jdanko, N.P.Lobachev, G.P.Snesarev, P.P.Vasilyeva, V.N.Basilov kabi mashhur tadqiqotchilarning ijodi bevosita ana shu guruhdar faoliyati bilan uzviy bog'langan. Ekspeditsiya tarkibida 3 ta - o'zbek, turkman, qoraqalpoq etnografik guruh ishlagan. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi etnograflarining tadqiqot mavzulari arxeologik tadqiqotlaridan kam emas.

Xorazm etnografiya ekspeditsiyasining o'zbek etnografiya guruhining eng mahsuldor davri 1940-yil boshi - 1950 yillar oxirini o'z ichiga oluvchi vaqtga to'g'ri keladi¹⁷. Bu o'rinda, avvalo, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi rahbari S.P.Tolstovning amalda ekspeditsiya qatnashchilarining o'ziga xos, har tomonlama tadqiqot yakunlari bo'lgan ekspeditsiya materiallariga asoslangan «Qadimgi Xorazm» (1948) nomli yirik asarini ko'rsatib o'tish joiz.

Bu vaqtdagi arxeologiya asarlariga K.Zadixina¹⁸, M.Sazonova¹⁹ ning, xususan S.P.Tolstovning ekspeditsiyada etnografik ishlar bo'yicha o'rinbosari T.Jdanko²⁰ ning ilk

¹⁵ С.П.Толстов. Ўзбекистоннинг қадимги маданияти. Тошкент. —Фан. 1944, 5-бет.

¹⁶ Толстов С.П. Древний Хорезм. - М., 1948


¹⁷ Толстов С.П. Итоги двадцати лет работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции //СЭ. - М., 1957. - № 4. - С. 31-59

¹⁸ Задыхина К.Л. Узбеки дельты Амударьи: Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции в 1945-1948 гг. // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. - М., 1952.

asarlari, shuningdek Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining ilmiy natijalari yoritilgan boshqa asarlarni aytib o'tish joiz.

Etnolog olim I. Jabborov M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida o'qigan yillarida mazkur ekspeditsiya ishida ishtirok etib, keyinchalik to'plagan ilmiy malumotlari asosida 1954 yilda "XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazm o'zbeklarining shahar hunarmandchiligi (tarixiy-etnografik ocherk)" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Shundan so'ng, u ko'p yillar mobaynida Xorazm mavzusini davom ettirib ilmiy ishlarini e'lon qilgan.

Xorazm Arxeologiya-Etnografiya Ekspeditsiyasi faoliyati tufayli 1-marta Xorazmning arxeologiya xaritasi (1956) tuzilgan. Ekspeditsiyaning ilmiy tadqiqotlari butun O'rta Osiyoning qadimgi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.²¹



Xorazm ekspeditsiyasining urushdan keyingi davrda olib borgan ish yakunlari S.P. Tolstovning «Oks va Yaksartning qadimgi deltalari bo'ylab» (1962) kitobida, Xorazm ekspeditsiyasining o'n bir jildidan iborat asarlarida, ekspeditsiya materiallari chop etilgan o'nta kitobda, ekspeditsiya xodimlarining monografiya va maqolalarida berilgan.

Hozirga qadar Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi «Asarlar»ining 16 jildi, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi «Materiallar»ining 10 ta juzi, 18 ta tematik to'plami chop etilgan. Shuningdek, Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasi xodimlarining maqolalari «Вестник древней истории», «Вопросы истории», «Советская археология», «Советская этнография», «Этнографическое обозрение» va boshqa jurnallarda bosilib chiqqan. Guruhlarning ishlari haqidagi hisobotlar KSIMK (Moddiy

- Т. I. - С. 319-426; Ўша муаллиф. Культ и быт узбеков Кипчакского района Каракалпакской АССР // Там же. - Т. II. - С. 761-808.

¹⁹ Сазонова М.В. К этнографии узбеков Южного Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. - М., 1952. - Т. I.

²⁰ Т.А. Жданкониинг ХАЭЭ материаллари асосидаги куйидаги ишлари: Родоплеменная структура и расселение каракалпаков низовьев Амударьи в XIX - начале XX в. // Краткие сообщения Института этнографии АН СССР. - М., 1949. - Т. VI. - С. 58-63;

²¹ Толстов С. П., Древний Хорезм, М., 1948, с. 22

madaniyat tarixi institutining qisqa axboroti) xamda KSIE (Etnografiya institutining qisqa axboroti)ning yillik nashrlarida, «Археологические открытия» va boshqa nashrlarda berib borildi.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil mustaqillikka erishgandan keyin arxeologik izlanishlar yana ham jadallashadi, ko'plab arxeologik izlanishlar olib boriladi. Mustaqillik yillarida Edvard Rtveladze "Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi - O'rta Osiyodagi o'zgacha, o'ziga xos belgilariga ega deb xulosa chiqaradi"²².

G'ayratdin Xodjaniyazov harbiy istehkomlar masalasini bundan buyon ham har tomonlama o'rganish zarurligini hisobga olib, 1974-2006 yillarda ham mustaqil, ham O'zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston filiali Tarix, til va adabiyot instituti arxeologiya otryadlari tarkibida qadimgi Xorazm harbiy istehkom inshootlarida tadqiqot ishlarini olib borgan edi.²³

1996-yilda atroflicha o'rganilgan Xumbuztepa yodgorligi nainki yalpi Xorazmni, balki qo'shni o'lkalarni ham kulolchilik buyumlari bilan ta'minlovchi markaz bo'lgan ekan.

Professor V.N.Yagodin va professor A.Betslar rahbarligidagi bu ekspeditsiya tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida Oqchaxon qal'aning miloddan oldingi IV-III asrlarda Xorazm vohasidagi eng katta shahari ekanligi to'g'risidagi yuqorida aytilgan fikrlar to'la tasdiqlandi²⁴.

Arxeologik izlanishlar olib borilishi natijasida XX asr 60-yillariga kelib Amudaryo chap tarafida 45, o'ng tarafida 125 dan ortiq yodgorlikning borligi aniqlandi. Keyin XX asr 70-yillariga kelib Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi arxeologlari tarafidan Amudaryo o'ng tarafidagi yodgorliklar soni 250 ga, chap tarafdagi yodgorliklar soni 60 ga yetdi. Xorazm ekspeditsiyasining a'zolaridan biri Yu. A. Rapoport Xorazm antik sivilizatsiyasi tarixiga tegishli yodgorliklar soni 400 ga yetadi deb fikr bildiradi²⁵.

Antik davr Xorazm shaharlari tarixini o'rganish dolzarb masala. Sababi, yodgorliklarda ota bobolarimiz hayot kechirgan, turli xil kasb-hunar bilan shug'ullanishgan. Agar antik davr shahar va yodgorliklari o'rganmasak, ularni asrab avaylab kelgusi avlodga yetkazmasak kelajak avlod bizlarni kechirmaydi. Bunday vazifalarni qilish har bir arxeolog va fuqaro uchun burch bo'lishi lozim. Shunday qilsak vatanimiz O'zbekiston Respublikasi uchun o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Толстов С.П. Последам древнорезмийской цивилизации М.,Наука, 1948
2. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. - Т.: 1964
3. Толстов С.П. Древности Южного Хорезма.М.,Наука,1948 г

²² Kidiriyazov M.Sh, Kidiriyazov O.Sh. Antik davr Xorazm sivilizatsiyasi tarixi. Nukus-2014-yil. 13-bet

²³ Shu manba. 29-bet

²⁴ Ягодин, Беттс, Ходжаниязов и др., 2006-Ягодин В., Беттс А., Ходжаниязов Г., Кидд Ф., Амиров Ш.,Искендерова А. Археологические исследования на городище Казахлыяткан(Ахшахан). //Археологические исследования в Узбекистане 2004-2005 годы.Т.,Фан

²⁵ Kidiriyazov M.Sh, Kidiriyazov O.Sh. Antik davr Xorazm sivilizatsiyasi tarixi. Nukus-2014-yil. 67-bet

4. Толстов С.П. Ўзбекистоннинг қадимги маданияти. Тошкент. —Фан. 1944
5. Толстов С.П. Древний Хорезм. - М., 1948
6. Толстов С.П. Итоги двадцати лет работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции //СЭ. - М., 1957. - № 4
7. Толстов С.П. Новые материалы по истории культуры древнего Хорезма.ВДИ №2,1946 г
8. Задыхина К.Л. Узбеки дельты Амударьи: Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции в 1945-1948 гг. / / Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. - М., 1952. - Т. I. - С. 319-426; Ўша муаллиф. Культ и быт узбеков Кипчакского района Каракалпакской АССР / / Там же. - Т. II.
9. Сазонова М.В. К этнографии узбеков Южного Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. - М., 1952. - Т. I.
10. Т.А. Жданконинг ХАЭЭ материаллари асосидаги куйидаги ишлари: Родоплеменная структура и расселение каракалпаков низовьев Амударьи в XIX - начале XX в. // Краткие сообщения Института этнографии АН - М., 1949.
11. Iso Jabborov. Ko'hna xarobalar siri. Toshkent 1961-yil
12. G'ayratdin Xo'janiyazov. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari (Mil.avv VI asrdan mil. IV asrgacha). Toshkent -“O'zbekiston” - 2007-yil
13. Kidiriyazov M.Sh, Kidiriyazov O.Sh. Antik davr Xorazm sivilizatsiyasi tarixi. Nukus-2014-yil
14. Исо Жабборов. Древний Хорезм - страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). Москва 2014 г